

**JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH  
TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Bobomurotova Manzura Panji qizi***

*Zangiota tumani Yog'du ko'chasi 21-uy*

*Toshkent Moliya instituti o'qituvchisi*

***Annotatsiya:*** ushbu maqolada jismoniy shaxslar, ulardan undiriladigan soliqlar va ularning turlari, xususiyatlari, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning ahamiyati, qonunchilik asoslari, soliqqa tortish tartibini takomillashtirish hamda imtiyozlari, jismoniy shaxsning soliqqa tortish tartibining yangi qonuniy joriy jihatlari xususidagi fikrlar ifodalangan.

***Kalit so'zlar:*** jismoniy shaxs, soliq, daromad, manbalar, soliq turlari, Sheduliyar yoki inglizcha tizim, global tizim, stavka.

***Аннотация:*** В данной статье изложены мнения о физических лицах, налогах, взимаемых с них, и их видах, особенностях, значении налогообложения физических лиц, законодательных основах, совершенствовании и преимуществах налогообложения, новых законодательно-правовых аспектах налогообложения физических лиц.

***Ключевые слова:*** физическое лицо, налог, доход, источники, виды налогов, Шедулярная или английская система, глобальная система, ставка.

***Annotation:*** this article expresses opinions on individuals, taxes levied on them and their types, characteristics, significance of taxation of individuals, legislative basis, evolution and benefits of taxation procedure, new legal current aspects of the taxation procedure of an individual.

***Keywords:*** individual, tax, income, sources, tax types, Shedular or English system, global System, rate.

### **KIRISH**

Mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab, demokratik davlat qurish yo'lidan borayotgan respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi sharoitida ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi soliq tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir. Zero, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni budjet-soliq tizimini ham muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Soliq siyosati soliq tizimi islohotlarining muhim yo'nalishi sifatida iqtisodiyotni tartibga solish hamda uning barqarorligini ta'minlash jarayonida har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yigindisi jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini tashkil etadi. Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar davlat budjeti daromadlarining 20-25 foizini tashkil etadi. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan-to'g'ri o'z daromadidan olinadi. Ular to'laydigan soliqlar va yig'imlar budjetga naqd va naqdsiz pul to'lash yo'li bilan o'tkaziladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda, jismoniy shaxslar o'z daromadlaridan, mol-mulkidan va egallab turgan yerlaridan turli xil soliqlar hamda yig'imlar to'laydilar. Jismoniy shaxsning huquq layoqati - bu fuqarolik huquqlari, burchlariga ega bo'lishi tushuniladi. Yuridik me'yorlarga muvofiq bu layoqat 18 yoshda, ya'ni fuqaro balog'at yoshiga yetganda yuzaga keladi (F.K. - 22 modda).

### **ASOSIY QISM**

Soliqlar to'grisidagi iqtisodiy qarashlar tarixan ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga berilgan ta'riflarni tahlil qilish avvalambor, ularning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatini asoslash, solikdarning iqtisodiyotdagi rolini va soliqqa tortish printsiplarini belgilash, shuningdek, soliq

tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligining tutgan o'rnini aniqlash uchun zarurdir. Iqtisodiy adabiyotda olimlarning aksariyati soliqlarni ikkita muhim xususiyati, ya'ni majburiylik va ekvivalent huquqni bermasligi bilan ta'riflaydi. O.Abduraxmanov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagicha ta'rif bergan: «Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalentsiz majburiy to'lovlaridir»<sup>1</sup>. A.Adizov esa, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumlashtirilgan holda, «jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar- davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm va o'rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdur»<sup>2</sup>, deb ta'rif bergan. Mazkur ta'rifning muhim jihati shundaki, uning muallifi ba'zi xorijiy iqtisodchilar singari soliqlar borasida aholi mas'ulligini ta'kidlash bilan cheklanmagan, balki davlat ham o'z zimmasidagi majburiyatni adolatli tarzda bajarishi lozimligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida "Soliq va budget siyosatining 2023 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasida hamham ko'rib chiqildi. Xususan, 2023 yil uchun belgilangan soliq siyosatida asosiy soliq stavkalari foyda solig'ining bazaviy stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida o'zgarishsiz qoldirilmoqda. Aynan yakunlanayotgan joriy yilda Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq tizimi quyidagi takomillashtirilishlar bilan yakunlanmoqda:

Soliq to'lovchilarning toifasi, soliqlarning stavkalari, soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash (shu jumladan, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya

---

<sup>1</sup>Abduraxmonov .O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. / Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2005. 11-bet.

<sup>2</sup> Adizov .A.J. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish / Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.- T.: DJQA, 2004. 14- bet.

hisobvaraqlariga 0,1 foiz o'tkazish) tartibi saqlab qolinmoqda.

Jismoniy shaxslar o'z daromadlarini ipoteka kreditlarini so'ndirishga yo'naltirganda, bir vaqtning o'zida turar joy qiymati (bugungi kunga kelib 300 mln so'm) bo'yicha talabni bekor qilgan holda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan daromad summasi 15 mln so'mdan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 80 baravarigacha (yoki 73,6 mln so'm) oshirilmoqda. 2023-yilning 1-aprelidan boshlab jismoniy shaxslarning hayotini uzoq muddatga sug'urtalash haqini to'lashga yo'naltiriladigan jismoniy shaxslarning daromadlari qismida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilinmoqda. Qat'iy belgilangan miqdorlarda soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda.

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi. Jismoniyshaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Soliq tizimining asosi boigan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ulaming obyektiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo'lishiga (subyektiga), budjetga yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra ulaming tasniflanishidir. Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat budjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishi uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat

### **XULOSA**

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbaiga qarab ikki guruhga - to'g'ri va egri soliq'larga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni budjetga o'tkazish nuqtai-nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliq'larga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbaiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq'larga bo'linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlariga ajratib o'rganishni alohida kengroq yoritishga harakat qilamiz. Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir. Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'imlar va boshqalar kiradi.
2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi subyektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, yerdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliq'lardan iborat.
3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va boshqalar kiradi.<sup>3</sup>

Professor Malikov T.S. jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning ikki tizimi mavjudligini izohlab beradi:

1. Shedulyar yoki inglizcha tizim. Bunday tizim uzoq davr mobaynida Buyuk Britaniya va dunyoning boshqa mamlakatlarida qo'llanilib kelinyapti. U soliq to'lovchi daromadining jami bo'yicha emas, balki uning qismlari bo'yicha daromad manbaida amalga oshiriladi;
2. Global tizim. Bunda daromad solig'i orqali soliqqa tortish soliq to'lovchining jami daromadi bo'yicha amalga oshiriladi va u G'arb mamlakatlarida asosiy tizim

---

<sup>3</sup> Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya, Darslik/Toshkent Moliya instituti.-Toshkent:"Noshir", 2012, 357-bet.

hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat daromad soligi orqali milliy daromad taqsimotini amalga oshiradi. Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Abduraxmonov.O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. / Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2005.
2. Adizov.A.J. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish / Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.- T.: DJQA, 2004.
3. Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya, Darslik/Toshkent Moliya instituti.- Toshkent:"Noshir", 2012.
4. A.Jo'rayev, M.Usmanova. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. «Sano-standart» nashriyoti. Toshkent - 2015
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida "Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun.
6. <https://invexi.org/uz/press/the-main-directions-of-tax-policy-for-2023-have-been-determined/>.
7. <https://lex.uz/uz/docs/-6333246>

